Mazkur vazifalarni samarali hal etishda oliy ta'lim didaktikasida dual yondashuvdan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Dual yondashuv ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish muhitining o'zaro integratsiyasiga asoslangan bo'lib, u ta'lim texnologiyalari, o'qitish metodlari, vositalari va resurslarining uzviy bog'liq holda qo'llanilishini nazarda tutadi. Mazkur yondashuv kompetensiyaviy ta'lim paradigmasini amalga oshirish, talabalar kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish hamda ularning mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorligini ta'minlash uchun keng imkoniyatlar yaratadi ^[8; 9; 10].

Mazkur tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim muassasalarida dual ta'lim yondashuvini amalga oshirishning xalqaro va milliy tajribasini tahlil qilish, uning pedagogik samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash hamda oliy ta'lim amaliyotida qo'llanilayotgan tashkiliy-pedagogik modellarni tavsiflashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Dual ta'lim tizimining nazariy va amaliy asoslari xorijiy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Mazkur ta'lim tizimi dastlab Germaniyada shakllangan bo'lib, bugungi kunda mamlakatdagi korxonalarning salmoqli qismi ushbu tizimni amalga oshirish jarayoniga jalb etilgan.

B. Tidemann dual tizimni Germaniyaga xos kasbiy ta'lim shakli sifatida tadqiq etib, uning ta'lim jarayoni bilan kasbiy-amaliy tayyorgarlikni o'zaro uyg'unlashtirishdagi ahamiyatini yoritgan ^[13]. Keyinchalik ushbu model Avstriya va Shveysariyada ham keng joriy etilib, Yevropa mamlakatlarida kasbiy ta'lim va malakali kadrlar tayyorlashning samarali shakllaridan biriga aylangan.

S. Eisenmann Germaniyaning kasbiy ta'lim va tayyorlash sohasidagi hamkorlik tajribasini o'rganib, mazkur ta'lim tamoyilini boshqa ta'lim tizimlariga tatbiq etish imkoniyatlarini yoritgan ^[14]. Uning tadqiqotida Germaniya kasbiy ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari hamda mazkur tajribani boshqa sharoitlarga moslashtirish masalalariga e'tibor qaratilgan.

H. Solga, P. Protsch, C. Ebner va C. Brzinsky-Fay esa Germaniya kasbiy ta'lim va tayyorlash tizimining institutsional tuzilishi, kuchli jihatlari va mavjud muammolarini tahlil qilganlar ^[15]. Ushbu tadqiqotlar dual ta'limning samaradorligi ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi tizimli hamkorlik bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

Hozirgi kunda dual ta'lim modeli Shvetsiya, Gretsiya, Italiya, Ispaniya, Ruminiya, Chernogoriya, Fransiya va Daniya kabi Yevropa davlatlari bilan bir qatorda Xitoy, Janubiy Koreya hamda bir qator Afrika mamlakatlarida ham qo'llanilmoqda ^[14]. Mazkur tajribalarning geografik jihatdan keng tarqalishi dual ta'lim modelini turli ijtimoiy-iqtisodiy va ta'lim sharoitlariga moslashtirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi.

Ilmiy adabiyotlarda dual ta'lim kasbiy ta'lim dasturlarini ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish korxonasi hamkorligida tashkil etishga asoslangan ta'lim shakli sifatida tavsiflanadi. Bunda ta'lim dasturining nazariy qismi ta'lim muassasasida, amaliy qismi esa bevosita ishlab chiqarish muhitida, ya'ni korxona va tashkilotlardagi real mehnat jarayonida amalga oshiriladi ^[15]. Bunday yondashuv nazariy bilim va amaliy tayyorgarlikning o'zaro integratsiyasini ta'minlash, talabalarining kasbiy tajribasini boyitish hamda ularni mehnat bozori talablariga muvofiq kasbiy faoliyatga tayyorlashga xizmat qiladi.

M.A. Nikolina va E.V. Suvorova dual ta'limni innovatsion ta'lim shakli sifatida tadqiq etganlar ^[16]. Ularning tadqiqotlari dual ta'limning nazariy ta'lim bilan amaliy tayyorgarlikni birlashtirish imkoniyatlarini yoritishga qaratilgan. Mazkur yondashuvda ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish korxonasi o'rtasidagi hamkorlik talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

F.F. Dudyrev, O.A. Romanova va A.I. Shabalin Rossiya hududlarida dual ta'limni tashkil etish tajribasini o'rganganlar ^[17]. Ularning tadqiqotida dual ta'limning hududiy amaliyoti hamda ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish sohasi o'rtasidagi hamkorlik masalalari yoritilgan. Rossiyada dual ta'lim modeli 2014-yildan boshlab amaliyotga joriy etila boshlagan bo'lib, keyinchalik mazkur yo'nalishdagi tashkiliy mexanizmlar rivojlantirilgan. Bu tajriba dual ta'limni milliy ta'lim tizimining xususiyatlari va mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

L.V. Sidakova dual ta'lim modelining mohiyati va asosiy belgilarini tadqiq etgan ^[18]. Muallifning tadqiqoti dual ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va uning ta'lim jarayonidagi o'rnini tavsiflashga qaratilgan. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, dual ta'limning muhim xususiyatlaridan biri nazariy tayyorgarlik bilan amaliy faoliyatning o'zaro bog'liqligi hamda ta'lim jarayonida ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish subyektlarining hamkorligi ekanligini ko'rish mumkin.

Dual ta'lim sharoitida nazariy bilimlarni real ishlab chiqarish vazifalari bilan bog'lashda muammoli o'qitish yondashuvi ham muhim pedagogik ahamiyatga ega. M.I. Mahmutov muammoli o'qitishning asosiy nazariy masalalarini tadqiq etgan bo'lib, uning ilmiy qarashlari ta'lim oluvchilarning muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil fikrlash va yechim izlash faoliyatini tashkil etishning nazariy asoslarini yoritishga xizmat qiladi ^[11]. Mazkur yondashuv dual ta'lim sharoitida talabalarning nazariy bilimlarini ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan amaliy vazifalarni hal etishga yo'naltirish nuqtai nazaridan ahamiyatlidir.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, dual ta'limning turli model va shakllari nafaqat ishchi kadrlarni tayyorlash tizimida, balki oliy ta'lim muassasalari faoliyatida ham muhim o'rin egallaydi. B. Tidemann, S. Eisenmann, H. Solga, P. Protsch, C. Ebner, C. Brzinsky-Fay, M.A. Nikolina, E.V. Suvorova, F.F. Dudyrev, O.A. Romanova, A.I. Shabalin va L.V. Sidakova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda dual ta'limning turli nazariy, institutsional va amaliy jihatlari yoritilgan ^[13; 14; 15; 16; 17; 18].

Mazkur tadqiqotlarning umumiy jihati ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, nazariy hamda amaliy tayyorgarlikning o'zaro uyg'unligini ta'minlash va ta'limni kasbiy faoliyat bilan bog'lash masalalariga alohida e'tibor qaratilganligida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili dual ta'limning samaradorligi ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi barqaror hamkorlik, nazariy va amaliy tayyorgarlikning integratsiyasi hamda ta'lim mazmunining mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiqligi bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari va turli mamlakatlarda shakllangan tajribalarni o'rganish O'zbekiston oliy ta'lim tizimida, xususan, bo'lajak qishloq xo'jaligi muhandislarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda dual ta'lim imkoniyatlarini ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda dual ta'lim sharoitida bo'lajak qishloq xo'jaligi muhandislarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini o'rganishda ilmiy-nazariy tahlil, qiyosiy taqqoslash, tizimli yondashuv hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar dual ta'limning nazariy asoslarini o'rganish, xorijiy va milliy tajribalarni o'zaro taqqoslash, ta'lim muassasalari bilan ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi hamkorlikning tashkiliy-pedagogik xususiyatlarini aniqlash hamda mavjud tajribalar asosida tegishli ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

Ilmiy-nazariy tahlil metodi asosida dual ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy kompetensiya, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasiga oid ilmiy-pedagogik manbalar o'rganildi. Mazkur jarayonda dual ta'limning mohiyati, uning bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi o'rnini hamda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlariga doir ilmiy qarashlar tahlil qilindi. Shuningdek, dual ta'limni tashkil etishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlardagi asosiy talab va vazifalar ham tadqiqot mavzusi nuqtai nazaridan ko'rib chiqildi.

Qiyosiy taqqoslash metodi dual ta'limni tashkil etish bo'yicha xorijiy va milliy tajribalarni o'rganishda qo'llanildi. Xususan, Germaniya, Avstriya, Shveysariya, Qozog'iston va Rossiya Federatsiyasida shakllangan dual ta'lim tajribalarining o'ziga xos jihatlari tahlil qilinib, ularning O'zbekiston oliy ta'lim tizimida qo'llanilayotgan yondashuvlar bilan umumiy va farqli tomonlari qiyoslandi. Taqqoslashda ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish korxonasi o'rtasidagi hamkorlik, nazariy va amaliy tayyorgarlikning o'zaro integratsiyasi, ish beruvchilarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki hamda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratildi.

Tizimli yondashuv asosida dual ta'lim jarayoni o'zaro bog'liq tarkibiy qismlardan tashkil topgan yaxlit pedagogik tizim sifatida o'rganildi. Bunda oliy ta'lim muassasasi, ishlab chiqarish korxonasi va talaba o'rtasidagi hamkorlik, nazariy ta'lim va ishlab chiqarish amaliyotining uzviyligi, ta'lim mazmuni, pedagogik texnologiyalar hamda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonlari o'zaro aloqadorlikda tahlil qilindi. Mazkur yondashuv dual ta'lim samaradorligini ta'minlovchi asosiy tashkiliy-pedagogik omillarni tizimli ravishda tavsiflash imkonini berdi.



Umumlashtirish metodi yordamida o'rganilgan ilmiy manbalar, xorijiy tajribalar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda dual ta'limni amaliy tashkil etishga oid ma'lumotlar asosida umumiy ilmiy xulosalar shakllantirildi. Jumladan, dual ta'limning nazariy bilimlarni real ishlab chiqarish muhiti bilan integratsiyalash, ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash hamda bo'lajak qishloq xo'jaligi muhandislari-ning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari tizimlashtirildi.

Shunday qilib, tadqiqotda qo'llanilgan ilmiy-nazariy tahlil, qiyosiy taqqoslash, tizimli yondashuv va umumlashtirish metodlarining o'zaro uyg'unligi dual ta'limning tashkiliy-pedagogik xususiyatlarini kompleks o'rganish, xorijiy va milliy tajribalarni qiyoslash hamda bo'lajak qishloq xo'jaligi muhandislarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi asosiy pedagogik omillarni aniqlash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda dual ta'lim modeli ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi strategik hamkorlikni ta'minlovchi muhim tashkiliy-pedagogik mexanizm sifatida qaralmoqda. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, turli tadqiqotchilar mazkur modelni kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish, ta'lim mazmunini mehnat bozori ehtiyojlari bilan muvofiqlashtirish, nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar integratsiyasini ta'minlash hamda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning samarali vositasi sifatida baholaydilar [13; 16; 17; 18].

P2P (inglizcha peer-to-peer, person-to-person – “tengdan tengga”, “insondan insonga”) o'qitish modeli ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasida teng huquqli hamkorlik munosabatlarini shakllantirishga asoslangan pedagogik yondashuv hisoblanadi. Ingliz tilidagi peer atamasi “tengdosh”, “hamkor”, “sherik” ma'nolarini anglatib, mazkur modelning asosiy mazmuni ishtirokchilarning o'zaro teng huquqli hamkorligiga tayanishini ifodalaydi.

P2P modeli dastlab axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tarmoq tizimlarida keng qo'llanilgan bo'lsa-da, keyinchalik uning samarali mexanizmlari ta'lim sohasiga ham tatbiq etildi. Shu bois mazkur yondashuv ilmiy adabiyotlarda detsentralashgan yoki piring (peering) modeli sifatida ham qayd etiladi. Ta'lim tizimi nuqtai nazaridan P2P modeli ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarning o'zaro hamkorligi, tajriba almashishi hamda bilimlarni birgalikda o'zlashtirishiga asoslangan innovatsion ta'lim shakli sifatida talqin qilinadi.

Mazkur model bugungi kunda kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki u subyekt–subyekt munosabatlarini qaror toptirish, ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasida o'zaro ishonch, hamkorlik va ijtimoiy sheriklik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, P2P modeli talabalarning mustaqil fikrlash, jamoada ishlash, muloqot qilish va muammolarni hamkorlikda hal etish kabi universal kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Xorijiy mamlakatlarda dual ta'lim tizimini tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha to'plangan ilg'or tajribalar tahlili mazkur ta'lim modelini O'zbekiston Respublikasi sharoitida samarali tatbiq etishning muhim yo'nalishlarini belgilash imkonini berdi. Bugungi kunda dual ta'lim tizimini rivojlantirish va uning samaradorligini ta'minlash quyidagi ustuvor vazifalar orqali amalga oshirilmoqda:

- ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan o'quv jarayonini korxona va tashkilotlardagi real ishlab chiqarish muhiti bilan uzviy integratsiyalash;
- nazariy ta'limni oliy ta'lim muassasalarida, amaliy tayyorgarlikni esa korxona va tashkilotlarda tashkil etish orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish;
- hududlarning investitsion jozibadorligini yuksaltirish hamda iqtisodiyot tarmoqlarining real ehtiyojlarini hisobga olgan holda malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini takomillashtirish;
- ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikning zamonaviy tashkiliy shakllari va modellarini ishlab chiqish hamda rivojlantirish;
- mehnat faoliyati bilan integratsiyalashgan ta'lim dasturlari asosida talabalarda kasbiy kompetensiyalar, amaliy ko'nikmalar va malakalarni shakllantirish;
- ish beruvchilarning ehtiyojlari, zamonaviy texnologiyalar va ishlab chiqarishdagi innovatsion jarayonlarni hisobga olgan holda ta'lim dasturlarini muntazam takomillashtirib borish.

Shu tariqa, dual ta'lim tizimining samarali amal qilishi ta'lim muassasalari, ish beruvchilar va davlat o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni mustahkamlashga, ta'lim mazmunining mehnat bozori talablariga mosligini ta'minlashga hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-yanvardagi “Oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 14-son qaroriga muvofiq, 2025/2026-o'quv yilidan boshlab respublika oliy ta'lim muassasalarida dual ta'lim tizimini bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha aniq vazifalar belgilandi. Mazkur qaror asosida Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida ham dual ta'limni tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yildi.



Xususan, viloyatdagi oliy ta'lim muassasalarida bosqichma-bosqich dual ta'lim shaklida o'qitish tashkil etilmoqda hamda "Kasb egasi" dual ta'lim tizimini joriy etish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. Ushbu tizimning dastlabki bosqichida oliy ta'lim muassasalarining 3- va 4-bosqich talabalarini qamrab olish belgilangan.

Dual ta'lim doirasida talabalarining amaliy mashg'ulotlari ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikda tashkil etilib, mazkur jarayon oliy ta'lim muassasasi hamda amaliyot rahbarlari tomonidan muvofiqlashtirib boriladi. Bu esa talabalarining nazariy bilimlarini real ishlab chiqarish sharoitida mustahkamlash va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Shuningdek, dual ta'lim tizimining samarali tashkil etilishini ta'minlash maqsadida har yili 1-iyunga qadar talabalarni dual ta'lim asosida qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lgan korxonalarining salohiyati o'rganiladi hamda hamkor korxonalar ro'yxati shakllantirilib, e'lon qilinadi. Har yili 1-sentabrga qadar dual ta'lim shaklida tahsil olish uchun tanlangan talabalarni tegishli korxonalarga biriktirish bo'yicha korxona, talaba va oliy ta'lim muassasasi o'rtasida uch tomonlama shartnomalar rasmiylashtiriladi.

Bundan tashqari, dual ta'lim tashkil etilgan korxonalarda talabalar uchun yaratilgan mehnat va ta'lim sharoitlari, ularning amaliy mashg'ulotlarda ishtirok etishi hamda ta'lim dasturlarining bajarilishi doimiy monitoring qilinib boriladi. Mazkur chora-tadbirlar dual ta'lim tizimining samaradorligini ta'minlash, ta'lim sifati va bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotekhnologiyalar instituti Agroinjeneriya va gidromelioratsiya fakultetining "Qishloq xo'jalik mashinalari va texnik servisni tashkil etish" kafedrasiga biriktirilgan 60810100 – Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish ta'lim yo'nalishi talabalarini uchun dual ta'lim tizimi amaliyotga joriy etilgan. Mazkur tizim doirasida talabalarining nazariy va amaliy tayyorgarligi Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan qator ishlab chiqarish korxonalari va ilmiy muassasalar bilan tuzilgan hamkorlik shartnomalari asosida tashkil etilmoqda. Jumladan, "Andijonmaxsussuvpudrat" davlat unitar korxonasi, "Andijon Avtotexxizmat" MChJ, "Vodiy Klaster" MChJ, "Sohib Omad Barakasi Klasteri" MChJ, O'zbekiston–Belarus qo'shma korxonasi "Andijon TEXMASH" MChJ, "Dizel Servis" MChJ, "UzCaseService" MChJ hamda Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti bilan hamkorlikda talabalarining o'quv mashg'ulotlari dual ta'lim tamoyillari asosida tashkil etilmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, dual ta'lim tizimini samarali amalga oshirishning asosiy shartlaridan biri ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida barqaror hamda tizimli hamkorlik mexanizmlarini shakllantirish hisoblanadi. Bu jarayonda oliy ta'lim muassasasi tomonidan korxonalar bilan hamkorlik shartnomalari tuzilib, talabalarining laboratoriya ishlari, amaliy mashg'ulotlari va malakaviy ishlab chiqarish amaliyotlarini samarali tashkil etish ta'minlanadi. Korxonalar esa, o'z navbatida, talabalar uchun zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan ishlab chiqarish maydonlari hamda real mehnat muhitini taqdim etadi.

Dual ta'limning pedagogik asosini nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarning o'zaro uyg'unligi tashkil etadi. Mazkur yondashuv ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari va baholash mexanizmlarining integratsiyalashuvini talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim dasturlarini loyihalashda modulli o'qitish texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunda nazariy va amaliy mashg'ulotlar yagona modul doirasida birlashtirilib, talabalarining muayyan mavzularni turli sharoitlarda va real ishlab chiqarish muhiti bilan bog'liq holda o'zlashtirishi ta'minlanadi.

Shuningdek, dual ta'lim jarayonida muammoli va vaziyatli o'qitish texnologiyalarini qo'llash muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv orqali talabalar ishlab chiqarishda uchraydigan real muammolarni tahlil qilish, ularning yechimlarini izlash va nazariy bilimlarni amaliy vazifalarni hal etishda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada talabalarda tanqidiy fikrlash, tahlil qilish va qaror qabul qilish kompetensiyalari rivojlanadi.

Dual ta'lim tizimida ta'lim oluvchilarning faol ishtirokini ta'minlash maqsadida interaktiv pedagogik texnologiyalardan ham keng foydalaniladi. Xususan, loyiha asosida o'qitish texnologiyasi talabalarining amaliy loyihalarni bajarish orqali nazariy bilimlarni real ishlab chiqarish jarayonlariga tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan simulyatsiyalar va virtual treninglar ishlab chiqarish jarayonlarini modellashtirish, kasbiy ko'nikmalarni xavfsiz muhitda shakllantirish hamda murakkab texnologik jarayonlarni samarali o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Dual ta'lim tizimini milliy ta'lim tizimi xususiyatlari va mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish uning samaradorligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Shu bois ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va takomillashtirish jarayonida agrar sohaning real ehtiyojlari, ish beruvchilar talablari hamda hududiy iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish muhim metodologik yondashuv sifatida qoralishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, dual ta'lim tizimining samarali joriy etilishi ta'lim jarayonining ishlab chiqarish va amaliy faoliyat bilan integratsiyasini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Mazkur tizim talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, nazariy bilimlarini real ishlab chiqarish sharoitida mustahkamlash hamda



mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun muhim tashkiliy-pedagogik asos yaratadi. Shu bilan birga, dual ta'limni keng joriy etish yetakchi xorijiy ilmiy-ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, ilg'or xalqaro tajribalarni milliy ta'lim tizimiga tatbiq etish hamda ta'lim mazmunini iqtisodiyot tarmoqlarining istiqbolli rivojlanish tendensiyalari bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Bu esa hududiy va tarmoq dasturlari doirasida iqtisodiyotning malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini samarali qondirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, dual ta'lim tizimi ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, ta'lim sifatini oshirish va bitiruvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasini yuksaltirishning samarali vositasi hisoblanadi. Natijada mehnat bozori talablariga to'liq javob beradigan, yuqori malakali, innovatsion fikrlaydigan va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimi takomillashib, mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi hamda agrar sohaning innovatsion taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadi. Kelgusida dual ta'lim asosida kasbiy kompetensiyalarni baholashning zamonaviy mexanizmlarini takomillashtirish, raqamli ta'lim texnologiyalari bilan integratsiyalashtirilgan o'quv modellarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini baholash ushbu yo'nalishdagi istiqbolli tadqiqot vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 2-apreldagi "Qishloq va suv xo'jaligi muhandislarini tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-122-son1 qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 11-apreldagi "Toshkent davlat agrar universiteti faoliyatini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-135-son2 qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-yanvardagi "Oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 14-son qarori.
4. Семенова Л.М. Динамика цифровой дидактики в условиях трансформации высшего образования. Часть I / Л.М. Семенова // Мир науки. Педагогика и психология, 2020. Т. 8. № 3. - С. 37-47.
5. Седова А.В. Социальный заказ в системе профессионального образования Оренбургской области // Вестник Алтайской академии экономики и права. [Электронный ресурс]. URL: <https://vaael.ru/ru/article/view?id=1043>.
6. Семенова Л.М. Формирование профессионального имиджа и готовности к самопрезентации у будущих специалистов в области массовой коммуникации: монография. - Челябинск: Издательский центр ЮУрГУ, 2008. - 181 с.
7. Семенова Л.М. Современный рынок труда и профессиональные компетенции специалистов в области коммуникации: оценка и форсайт-прогноз / Профессиональные компетенции специалиста по коммуникациям XXI века: коллективная монография / под ред. А.Д. Кривоносова. - СПб.: Изд-во СПбГЭУ, 2021. - С. 50-64.
8. Серкова Г.Г. Дуальное обучение: проблемы, перспективы // Инновационное развитие профессионального образования. 2016. № 4(12). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/dualnoe-obuchenie-problemy-perspektivy> (дата обращения: 13.03.2022).
9. Semenova L.M., Goykhman O.Y., Goncharova L.M. (2020). Organizational and pedagogical conditions for professionally oriented training of communication / International Scientific Congress "Knowledge, man and civilisation" // Specialists European Proceedings of Social and Behavioural Sciences EpSBS. Volume 107 - ISCKMC 2020. - P. 1424-1431.
10. Yugfeld Ye.A. Analiz effektivnosti dualnoy modeli obucheniya pri podgotovke spetsialistov v usloviyakh gosudarstvenno-chastnogo partnerstva // Vestnik vysshey shkoly "Alma mater", 2014, № 9. - С. 44-47.
11. Махмутов М.И. Проблемное обучение. Основные вопросы теории. - М.: Педагогика, 1975. - 370 с.
12. Зинкевич Е.Р., Семенова Л.М. Инновационно-педагогические технологии в компетентностно-ориентированном образовании: монография. - СПб.: Издательский центр ГБОУ ВПО "Санкт-Петербургский государственный педиатрический медицинский университет", 2019. - 104 с.
13. Тидеманн Б. Дуальная система - немецкая форма профессионального образования // "Образование и наука", 2011, № 6. - С. 112-123.
14. Eisenmann S. (2017). German Vocational Training and Education Cooperation. Possibilities for Transferring a Successful Education and Training Principle. Berlin: Secretariat of the Standing Conference of the Ministers of Education and Cultural Affairs of the Länder in the Federal Republic of Germany (KMK). [Electronic resource]. Access mode: https://www.kmk.org/fileadmin/Dateien/pdf/PresseUndAktuelles/2017/2017_KMK_Berufsbildung_ENGL_Web.pdf (data obrashcheniya: 22.10.2021).
15. Solga H., Protsch P., Ebner C., Brzinsky-Fay C. (2014). The German vocational education and training system: Its institutional configuration, strengths, and challenges. Berlin: Wissenschaftszentrum für Sozialforschung gGmbH. [Electronic resource]. Access mode: <https://bibliothek.wzb.eu/pdf/2014/i14-502.pdf> (data obrashcheniya: 13.02.2022).
16. Николина М.А., Суворова Е.В. Дуальное образование как инновационная форма обучения // Новое поколение. - 2017. - № 11. - С. 87-92.
17. Дудырев Ф.Ф., Романова О.А., Шабалин А.И. Дуальное обучение в российских регионах // Вопросы образования / Educational Studies Moscow. 2018. № 2. - С. 120-138.
18. Сидакова Л.В. Сущность и основные признаки дуальной модели обучения // Образование и воспитание. - 2016. - № 2(7). - С. 62-64.

1 <https://lex.uz/uz/pdfs/-8115447>

2 <https://lex.uz/pdfs/-8130293>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.